

ENTO DEFOLNI KO'P MAROTABA TA'SIRIDA JIGARNING MORFOLOGIK O'ZGARISHLARI

Karimov N.B.

Islomov Sh.E.

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22743845>

Qabul qilindi: 6-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 13-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 14-sentabr 2026-yil

Dolzarbligi.

Hozirgi payti kimyoviy moddalarni keng tarkalishi, ularning inson organizmiga ta'sirini o'rganishini taqozo etadi.

Tadqiqot maqsadi: Defoliant Ento Defolni ko'p marotaba ta'sir qilgandan so'ng, kalamush jigarning xarakterli morfologik belgilarini aniqlash.

Tadqiqot materiali va usullar: Tajriba ikki guruh laboratoriya kalamushlarida o'tkazildi: nazorat guruhi (36 kalamush) va pestitsid Ento Defol 1/20 LD₅₀ dozasi ta'sir qilgan guruh (36 kalamush) (3, 7, 14, 30, 60, 90 kunlar davomida). Qo'llanilgan tadqiqot usullaridan gistologik preparatlarni gematoksilin-eozin, van Gizon va toluidin ko'ki bilan buyash usullari qo'llanildi.

Tadqiqot natijalari: Olib borilgan morfologik tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, 1/20 LD₅₀ dozadagi o'tkir toksik ta'sir jigar to'qimasida vaqtga bog'liq ravishda rivojlanuvchi, bosqichma-bosqich xarakterga ega bo'lgan distrofik, mikrosirkulyator va kompensator-regenerativ o'zgarishlar kompleksini keltirib chiqardi. Tadqiqotning dastlabki bosqichida (3–7 kun) sentrolobulyar zonalarda gepatositlarning vakuolyar va donalik distrofiyasi, gidropik shish, sinusoidlarda qon quyilish va staz holatlari ustunlik qilganligi kuzatildi.

7-kunga kelib morfologik o'zgarishlar chuqurlashib, ayrim hollarda nekrobiotik jarayonlar (piknoz, karioreksis) kuzatildi. Shu bilan bir vaqtda Kupfer hujayralarining faollashuvi va interstisial infiltrasiya. 14-kundan boshlab destruktiv o'zgarishlar pasayib, regenerativ jarayonlar ustunlik qila boshladi, bu ikki yadroli gepatositlar va mitotik faollikning ortishi bilan tasdiqlandi.

30-kunga kelib jigar to'qimasida tiklanish jarayonlari yaqqol namoyon bo'lib, gepatositlarning morfologik tuzilishi deyarli normal holatga qaytdi. 60-kunda ayrim hollarda periportal zonalarda yengil fibroz tendensiyalari kuzatilgan bo'lsa-da, ular qaytar xarakterga ega bo'lib, patologik darajaga yetmadi. 90-kunda esa jigarning gistoarxitektonikasi to'liq tiklanib, funktsional zonallik qayta shakllandi.

Turli gistologik bo'yoqlar qo'llanilishi natijasida olingan ma'lumotlar o'zaro bir-birini to'ldirdi: gematoksilin-eozin distrofik va nekrobiotik o'zgarishlarni, Van-Gizon stromal qayta qurilish tendensiyalarini, toluidin ko'ki esa hujayraviy va metaxromatik o'zgarishlarni yuqori aniqlikda aks ettirdi. Umuman olganda, ushbu dozadagi toksik ta'sir jigarda qaytar morfologik o'zgarishlarni keltirib chiqaradi va vaqt o'tishi bilan to'liq yoki deyarli to'liq regressiyaga uchraydi.

Xulosa. 1/20 LD₅₀ dozadagi toksik ta'sir jigar to'qimasida bosqichli morfologik o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Ilk bosqichda distrofik va mikrosirkulyator buzilishlar ustun bo'lsa, keyingi bosqichlarda regenerativ jarayonlar ustunlik qiladi. Qo'llanilgan gistologik bo'yoqlar jigar to'qimasidagi turli morfologik komponentlarni har tomonlama baholash imkonini berdi va ularning diagnostik ahamiyatini tasdiqladi. Olingan natijalar jigarning yuqori kompensator-regenerativ salohiyatga ega ekanligini ko'rsatib, past dozadagi toksik ta'sirlar sharoitida morfologik o'zgarishlar qaytar xarakterga ega ekanligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.